



DEVELOPMENT OF THE SILK INDUSTRY IN UZBEKISTAN DURING 1950–1980 AND ITS SCIENTIFIC AND ORGANIZATIONAL FOUNDATIONS

Islomjon Urinov

Teacher at the Department of “Languages, Social Sciences and Humanities, and Physical Culture”

Uzbek National Institute of Musical Arts named after Yunus Rajabiy

Email: islomjonurinov469@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: sericulture, cocoon production, agriculture of Uzbekistan, CPSU Central Committee Plenum, agrarian reforms, research institute, silkworm breeds, selection, rural infrastructure, economic efficiency.

Received: 13.05.26

Accepted: 14.05.26

Published: 15.05.26

Abstract: This article examines the development stages of the sericulture sector in Uzbekistan during the 1950s–1980s, as well as its support within the framework of state policy and organizational improvements. It highlights the management system of the sector, territorial specialization, and the formation of production infrastructure. The activities of the Central Asian Research Institute of Sericulture and the processes of creating and introducing new silkworm breeds are analyzed. Special attention is paid to scientific and practical achievements and their impact on the economic efficiency of the отрасль.

1950–1980-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA IPAKCHILIK TARMOG‘INING RIVOJLANISHI VA ILMIY-TASHKILY ASOSLARI

Islomjon Urinov

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

“Tillar, ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat”

kafedrası o‘qituvchisi

islomjonurinov469@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ipakchilik, pillachilik, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, KPSS Plenumi, agrar islohotlar, ilmiy-tadqiqot instituti, ipak

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1950–1980-yillarda O‘zbekistonda ipakchilik tarmog‘ining rivojlanish bosqichlari, uning

qurti zotlari, seleksiya, qishloq infratuzilmasi, iqtisodiy samaradorlik.

davlat siyosati doirasida qo‘llab-quvvatlanishi va tashkiliy jihatdan takomillashuvi tahlil qilingan. Shuningdek, tarmoqni boshqarish tizimi, hududiy ixtisoslashuv va ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi yoritilgan. O‘rta Osiyo ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati, yangi ipak qurti zotlarini yaratish va joriy etish jarayonlari ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada sohadagi ilmiy-amaliy yutuqlar va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri ochib berilgan.

РАЗВИТИЕ ШЕЛКОВОДЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1950–1980 ГОДАХ И ЕЁ НАУЧНО-ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ОСНОВЫ

Исломжон Уринов

*Преподаватель кафедры «Языки, социально-гуманитарные науки и физическая культура»
Узбекский национальный институт музыкального искусства имени Юнуса Раджаби
Электронная почта: islomjonurinov469@gmail.com
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: шелководство, коконоводство, сельское хозяйство Узбекистана, Пленум ЦК КПСС, аграрные реформы, научно-исследовательский институт, породы шелкопряда, селекция, сельская инфраструктура, экономическая эффективность.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы развития шелководческой отрасли в Узбекистане в 1950–1980-е годы, а также её поддержка в рамках государственной политики и организационное совершенствование. Освещены система управления отраслью, территориальная специализация и формирование производственной инфраструктуры. Проанализирована деятельность Среднеазиатского научно-исследовательского института шелководства, а также процессы создания и внедрения новых пород шелкопряда. Особое внимание уделено научно-практическим достижениям и их влиянию на экономическую эффективность отрасли.

Kirish. 1950–1980-yillarda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida ipakchilik tarmog‘i muhim o‘rin egallab, uni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, 1953 yil sentabr Plenumi va keyingi qarorlar tarmoqni isloh qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda ipakchilikni tashkil etish, boshqarish va iqtisodiy rag‘batlantirish tizimi takomillashtirildi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlari va yangi zotlarni yaratish sohaning barqaror o‘lishini ta’minladi.

Adabiyotlar sharxi. O‘zbekistonda ipakchilik tarmog‘ining rivojlanishi masalasi sovet davrida va mustaqillik yillarida bir qator tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, sohaning iqtisodiy va tashkiliy jihatlari N. Tojiyev, N.R. Hakimov kabi olimlar ishlarida yoritilgan bo‘lib, ularda asosan kolxoz va sovxozlarda ipakchilikni tashkil etish, ishlab chiqarish samaradorligi masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, Z. Haydarov, B. Shelkovnikov kabi mualliflar tomonidan tarmoqning iqtisodiy taraqqiyoti va ishlab chiqarish xususiyatlari o‘rganilgan.

Muhokama va natijalar. Arxiv manbalari, xususan, O‘zR MDA va sohaviy arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar ipakchilik tarmog‘ining boshqaruv tizimi, ilmiy-tadqiqot ishlari va ishlab chiqarish jarayonlarini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, fond, ro‘yxat va ish hujjatlari tarmoqning amaliy faoliyatini aniq misollar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

1955 yilda esa respublika darajasida «O‘zbekistonda ipakchilikni yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi qaror qabul qilinib, tarmoqni takomillashtirishning yangi bosqichi boshlandi. Unda kolxozlarning pilla yetishtirish va ozuqa bazasini kengaytirishga bo‘lgan manfaatdorligi yetarli darajada ta‘minlanmayotgani qayd etilib, mavjud kontraktatsiya tizimini qayta ko‘rib chiqish taklif etildi. Yangi tartibga ko‘ra, pilla yetishtirish hajmi kolxoz va sovxozlarga birlashtirilgan sug‘oriladigan yer maydonlariga nisbatan — har 100 gektar hisobidan rejalashtirilishi, shuningdek hududlar kesimida ishlab chiqarish meyorlarini tabaqalashtirish nazarda tutildi. Mazkur qarorda belgilangan chora-tadbirlar keyinchalik ipakchilik sohasida yetti yillik rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi[1].

1950–1980-yillarda O‘zbekistonda ipakchilik tarmog‘ining tashkiliy tuzilmasi avvalgi davrlarda shakllangan boshqaruv tizimi negizida izchil takomillashtirilib, markazlashgan boshqaruv mexanizmi yanada mustahkamlandi. Xususan, 1953 yilgacha tarmoq «O‘zbekpaksanoat» tresti orqali boshqarilgan bo‘lsa, 1953–1957-yillarda mazkur vazifa «O‘zbek ipak boshqarmasi» zimmasiga yuklatildi. 1958 yildan boshlab esa ushbu boshqarma O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufiga o‘tkazilib, respublikada ipakchilik tarmog‘ini muvofiqlashtiruvchi asosiy markaziy idora sifatida faoliyat yuritdi[2] va 1991 yilgacha o‘z mavqeini saqlab qoldi.

Mazkur boshqaruv tizimi tarmoqning barcha bo‘g‘inlarini — pilla yetishtirish, ipak qurti urug‘chiligi, pillani qabul qilish hamda uni qayta ishlash jarayonlarini o‘zaro muvofiqlashtirilgan yagona tizim doirasida birlashtirish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, ipakchilik tarmog‘ining tashkiliy tuzilmasi hududiy ixtisoslashuv tamoyili asosida ham shakllantirildi.

Jumladan, ipakchilik ishlab chiqarish boshqarmalari respublikaning 12 viloyati hamda Qoraqalpog‘iston ASSRda tashkil etilgan bo‘lib, ular tarmoq faoliyatini ma‘muriy va tashkiliy jihatdan boshqarish vazifasini bajargan[3]. Biroq tarmoqning ixtisoslashgan bo‘g‘inlari hududlar bo‘yicha bir xil joylashtirilmagan. Xususan, grenaj zavodlari va naslchilik ipakchilik stansiyalari asosan pillachilik an‘anaviy ravishda rivojlangan hududlarda — Farg‘ona vodiysi (Andijon, Farg‘ona), Samarqand hamda Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz hududida joylashtirilgan.

Ushbu muassasalar ipak qurti urug‘chiligi, seleksiya va biologik nazorat ishlarini amalga oshirib, tarmoqning ilmiy-ishlab chiqarish bazasini shakllantirishda muhim o‘rin tutgan. Shu bilan birga, naslchilik ipakchilik sovxozlari va tut ko‘chatxonalari xom ashyo bazasini kengaytirishga ixtisoslashgan korxonalar sifatida faoliyat yuritgan. Qashqadaryo viloyatining Qarshi hududida joylashgan xo‘jaliklar tut ko‘chatlari yetishtirish, ipak qurti nasllarini saqlash va pillachilik xo‘jaliklarini biologik resurslar bilan ta‘minlash orqali tarmoqning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin egallagan[4].

Ipakchilik tarmog‘ining ilmiy-tashkiliy asoslarini mustahkamlashda O‘rta Osiyo ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti alohida ahamiyat kasb etgan. Mazkur institut 1950–1970-yillarda tarmoqning ilmiy-amaliy rivojlanishini ta‘minlovchi yetakchi markaz sifatida faoliyat yuritgan. Institut 1957–1960 yillarda O‘zSSR Qishloq xo‘jaligi akademiyasi tizimida[5], 1963–1965 yillarda O‘zSSR Qishloq xo‘jaligi vazirligi tarkibida[6], 1977 yildan esa VASXNILning O‘rta Osiyo bo‘limi tarkibida faoliyat olib borgan[7].

O‘rta Osiyo ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti 1951–1960 yillar mobaynida sohani rivojlantirishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan. Institut ilmiy xodimlari, jumladan, A.M. Safonova, X. Zokirova va boshqalar ishtirokida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ipak qurti zotlarini yaratish va takomillashtirish bo‘yicha tajribalar o‘tkazilgan[8]. Ushbu tadqiqotlar natijasida bir qator yangi va yuqori sifatli gibridd zotlar shakllantirilib, ular asosida yuqori sifatli pilla yetishtirish imkoniyati yaratilgan.

Xususan, SANIISH №1, SANIISH №2, SANIISH №8, SANIISH №9, shuningdek, «Oq pilla» (Belokokonnaya) №1 va №2 kabi gibriddlar amaliyotga joriy etildi[9]. 1958 yildan boshlab yuqori hosildor «oq pilla» gibriddlari respublika miqyosida keng tarqala boshladi. Bunday zotlardan samarali foydalanish uchun agrotexnik talablarga qat‘iy amal qilish va parvarish sharoitlarini to‘g‘ri tashkil etish muhim omil sifatida baholandi[10].

Institut tomonidan yaratilgan yangi zotlar doirasi keng bo‘lib, ular orasida «US-1», «Sovetskaya №1», «SANIISH №11», «Tbilniish №1», «Tbilniish №2» hamda «Ozarbayjan» kabi turlar alohida ahamiyat kasb etdi[11]. 1958–1965 yillarda mazkur zotlar keng joriy qilinib, ipak

qurti urug'chiligida muhim o'zgarishlarga olib keldi. Masalan, 1950-yillar boshlarigacha Farg'ona viloyatida 80 foiz «Bag'dod» navli urug'lar ustunlik qilgan bo'lsa[12], 1958 yilga kelib Samarqand viloyatida tarqatilgan 55 foiz urug'larning katta qismi yangi «oq pilla» zotlariga to'g'ri kelgan. 1959 yildan esa ushbu navlar ayrim hududlarda to'liq joriy etildi. Keyingi yillarda «SANIISH 11», «SANIISH 17», «SANIISH 18», «SANIISH 21», «SANIISH 30» va «Sovet 5» kabi serhosil zotlar keng tarqaldi[13].

Yangi zotlarni joriy etish natijasida iqtisodiy samaradorlik ham sezilarli darajada oshdi. Xususan, 1960 yillarga kelib pillachilikdan olinadigan daromad deyarli ikki barobarga o'sdi: eski zotlardan bir qutidan o'rtacha 113 rubl daromad olingan bo'lsa, yangi gibridlardan 224 rublgacha daromad olish mumkin bo'lgan. 1961 yilda esa yangi duragay zotlardan har qutiga 50 kgdan ortiq pilla yetishtirishga erishildi[14].

Shu bilan birga, institut tomonidan ipak qurti parvarishlash texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan tajribalar ham olib borildi. Masalan, 1965–1966 yillarda polietilen qoplamalar ostida ipak qurti boqish usuli sinab ko'rildi. Bu usulda optimal haroratni saqlash orqali yuqori natijalarga erishish imkoniyati yaratilgan bo'lsa-da, xarajatlarning ortishi uning keng ko'lamda joriy etilishini cheklagan.

SANIISH oldiga sohaga doir ilmiy tadqiqotlar olib borish, shuningdek tutchilik va ipak qurti urug'chiligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash vazifalari qo'yilgan. Shu maqsadda turli muddatli o'quv kurslari tashkil etilgan. Xususan, 1950-yillarda pillani dastlabki qayta ishlash sohasidagi mutaxassislar uchun ikki oylik (300 soatlik) malaka oshirish kurslari yo'lga qo'yildi[15]. Shu bilan birga, 1946–1956 yillarda viloyatlarda ipak qurtini parvarishlashga bag'ishlangan o'n kunlik o'quv-seminarlar muntazam ravishda o'tkazildi[16]. Natijada sohada malakali kadrlar tayyorlash tizimi shakllanib, kadrlar salohiyati sezilarli darajada oshdi.

Institut tuzilmasi dastlab qurt urug'chiligi, ipakchilik texnologiyasi va iqtisodiyot kabi asosiy yo'nalishlarni qamrab olgan bo'lib[17], 1957 yilgacha jiddiy o'zgarishlar kuzatilmagan. Keyingi yillarda uning faoliyati kengayib, genetika va seleksiya, urug' ishlab chiqarish, ipak qurti ekologiyasi va fiziologiyasi, tutchilik, radiobiologiya, shuningdek ipakchilikni mexanizatsiyalash va elektrlashtirishga ixtisoslashgan bo'limlar tashkil etildi. Bundan tashqari, pillani birlamchi qayta ishlash, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashishga ixtisoslashgan ilmiy yo'nalishlar ham shakllantirildi[18]. Bu holat institut faoliyatining tarmoq ehtiyojlariga mos ravishda kompleks rivojlanganini ko'rsatadi.

1972 yilda institut tuzilmasi yanada kengaytirilib, bo'limlar soni 20 taga yetkazildi va eksperimental ustaxonalar hamda ishlab chiqarish laboratoriyalari tashkil etildi. Biroq 1973–1974-

yillarda amalga oshirilgan qayta tashkil etish natijasida bo'limlar soni 15 tagacha qisqartirildi[19]. Bu o'zgarishlar faoliyatni ixchamlashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan edi.

Institut faoliyati faqat ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmay, ilmiy-amaliy anjumanlar va konferensiyalar orqali ham rivojlantirilgan. 1958 yilda Moskvadagi yirik yig'ilishlarda, 1962 yilda Andijon va Marg'ilonda o'tkazilgan ilmiy anjumanlarda mutaxassislar faol ishtirok etgan. Ularda nafaqat ishlab chiqarish samaradorligi, balki mehnat muhofazasi va sanitariya-gigiyena sharoitlari kabi masalalar ham muhokama qilingan[20].

Shuningdek, ipakchilikda biologik va fiziologik muammolarni hal etishga qaratilgan tadqiqotlar ham olib borilgan. Turli olimlar ipak qurtining rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni o'rganib, ularning ilmiy yechimlarini ishlab chiqqan.

Institutning ilmiy salohiyati yildan-yilga oshib borib, 1967 yilda uning 40 yillik faoliyati sarhisob qilingan. Ushbu davrga kelib mavjud zotlar asosida bir nechta yangi turlar yaratilgan. Institut sovet davri mobaynida sohani rivojlantirish bo'yicha muhim ilmiy markaz sifatida faoliyat yuritgan[21].

Institut tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar ipakchilik texnologiyasini takomillashtirish hamda ularni ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, ipak qurtini jamoaviy va individual usullarda parvarishlash samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajribalar natijasida jamoaviy usul nisbatan yuqori natija berishi isbotlangan. Farg'ona viloyatida o'tkazilgan kuzatishlarga ko'ra, jamoaviy sharoitda har bir qutidan o'rtacha 80 kg atrofida pilla olingan bo'lsa, individual parvarish sharoitida bu ko'rsatkich 70–75 kgni tashkil etgan[22]. Shunga qaramasdan, amaliyotda, ayniqsa, oilaviy xo'jaliklarda ipak qurtini individual tarzda parvarishlash usuli keng saqlanib qolgan.

Xulosa. 1950–1980-yillarda O'zbekistonda ipakchilik tarmog'i davlat siyosati, ilmiy tadqiqotlar va tashkiliy islohotlar uyg'unligi asosida izchil rivojlandi. Tarmoqni markazlashgan boshqaruv tizimi orqali muvofiqlashtirish uning barqaror faoliyatini ta'minladi. Ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan yaratilgan yangi gibrid zotlar va texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Shu bilan birga, kadrlar tayyorlash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash sohaning taraqqiyotiga xizmat qildi. Natijada, ipakchilik respublika qishloq xo'jaligining yuqori samarali va muhim tarmoqlaridan biriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Тожиев Э.Х. Ўзбекистон ССРда ипакчиликнинг ривожланиши. –Т.: 1981. – Б. 58.
2. BVDA, 500-fond, 1-ro'yxat, 59-ish, 5–6-varaq.

3. O'zRMA, I.1-fond, 15-ro'yxat, 90-ish, 8-varaq.
4. QVDA. F. S-392, op. 1, ish 155. Qashqadaryo viloyati ipakchilik ishlab chiqarish boshqarmasi hujjatlari, 1985 y.3-varaq.
5. O'zR MDA, R-837-fond, 38-ro'yxat, 7632-ish, 15-varaq.
6. O'zR MDA, R-837-fond, 39-ro'yxat, 1376-ish, 183-varaq; O'zR ITTX MDA, 107-fond, 1-ro'yxat, 28-ish, 2–3-varaq.
7. O'zR ITTX MDA, 107-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 46-varaq.
8. O'zR ITTX MDA, 107-fond, 1-ro'yxat, 474-ish, 133-varaq.
9. Хафизов Н. Шелководство Средней Азии (Развитие и экономика).—Ташкент: Узбекистан, 1969.—С.49.
10. O'zR ITTX MDA, 107-fond, 1-ro'yxat, 376-ish, 38-varaq.
11. O'zR ITTX MDA, 107-fond, 1-ro'yxat, 215-ish, 36-37-varaqlar.
12. O'zR ITTX MDA, 107-fond, 1-ro'yxat, 178-ish, 6-varaq.
13. Грахов Г., Azizov A. Qurt boqishga puxta tayyorgarlik // Sovet Uzbekistoni. – 1970. –11 aprel. – № 85 (14551)
14. Гудошников В.С., Минасянц С.А., Суханов А.А. Шелководство социалистического Узбекистана. – Ташкент : Госиздат УзССР, 1949. –Б.51.
15. O'zR ITTX MDA, 107-fond, 1-ro'yxat, 220-ish, 11-varaq.
16. SVDA, 926-fond, 1-ro'yhat, 308-ish, 50-varaq.
17. O'zR ITTX MDA — O'zbekiston Respublikasi Ilmiy-texnikaviy va tibbiyot hujjatlari Markaziy davlat arxivi. 107-fond, 1-ro'yxat, 28-ish, 4-varaq.
18. O'zR ITTX MDA, 107-fond, 1-ro'yxat, 6-ish, 1-varaq.
19. O'zR ITTX MDA, 107-fond, 1-ro'yxat, 6-ish, 1-varaq.
20. O'zR ITTX MDA, 62-fond, 1-ro'yxat, 394-a-ish, 22-varaq.
21. Алимова Н.О. Ўзбекистонда ипакчиликнинг аҳволи ва трансформация жараёни. (1865-1991 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси. Тошкент–2018. –Б. 80.
22. Ҳакимов Н.Р. Организация колхозного шелководства. – Ташкент, – 1949. – С. 22–23.